

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari”
ilmiy-tadqiqot markazi**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.148**

ABDURAXMANOV KAXRAMON ABDUMAJITOVICH

**BYUDJET TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISH VA
MABLAG‘LARNI MAQSADLI SARFLANISHI NAZORATI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
dotsent F.I.Isayev**

Toshkent – 2024

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
	BYUDJET TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISH	
I BOB.	VA MABLAG‘LARNI MAQSADLI SARFLANISHI	
	NAZORATINING NAZARIY ASOSLARI.....	11
1.1-§.	Byudjetlashtirish va byudjet nazoratining nazariy masalalari....	11
1.2-§.	Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining shakllanish xususiyatlari va tafovutlari.....	21
1.3-§.	Byudjet tashkilotlari tomonidan mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratning samaradorligini baholashning xorij tajribasi.....	30
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	48
	BYUDJET TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISH	
II BOB.	VA MABLAG‘LARNI MAQSADLI SARFLANISHI	
	NAZORATINI HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	50
2.1-§.	Byudjet mablag‘larini moliyalashtirishning joriy holati tahlili..	50
2.2-§.	Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.....	62
2.3-§.	Moliyaviy nazorat organlari faoliyati natijalari tahlili.....	72
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	85
	BYUDJET TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISH	
III BOB.	VA MABLAG‘LARNI MAQSADLI SARFLANISHI	
	NAZORATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING	
	USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	86
3.1-§.	Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishini ta’minlovchi institutsional mexanizmlar	86
3.2-§.	Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishini tashkil qilishni xorij tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari.....	100
3.3-§.	Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishning huquqiy-axloqiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish.....	113
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	127
	XULOSA.....	129
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	133
	ILOVALAR.....	142

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda jahon mamlakatlari o‘rta muddatli istiqbolda fiskal siyosatni yanada izchil va samaraliroq qilish hamda xarajatlarning ta‘sirini qisqartirish uchun keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. “Milliy daromadning ulushi sifatida ta‘limni moliyalashtirish so‘nggi o‘n yil ichida hech bir mamlakat daromad guruhi uchun sezilarli darajada o‘zgarmadi. 2022-yilda yuqori daromadli mamlakatlar o‘z byudjetlarida ta‘limga ustuvorlik berishni kuchaytirdilar. Ammo daromadi past bo‘lgan ko‘plab mamlakatlarda ta‘lim o‘z o‘rnini yo‘qotdi”¹. Byudjet tashkilotlarida mablag‘larni taqsimlashni optimallashtirish, nazorat qilish, firibgarlikka oid xavflarni kamaytirish, xarajatlarni tejash va jamoatchilik ishonchini oshirishga oid muammolar sohani mukammalroq o‘rganish zaruratini oshirib bormoqda.

Xalqaro amaliyotda byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larning maqsadli sarflanishini nazorat qilish samaradorligini oshirishga oid bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Byudjet tashkilotlaridagi ichki nazorat tizimlarini o‘rganish, moliyaviy firibgarlik va qonunbuzarliklarning oldini olishda ularning samaradorligini baholash, moliyaviy nazorat modellarining qiyosiy tahlili, byudjet tashkilotlarida risklarni boshqarish strategiyalari, byudjet mablag‘larini taqsimlash va mablag‘larning ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirilishini ta‘minlashda jamoatchilik ishtiroki, mablag‘lar nazoratini tartibga soluvchi huquqiy va me‘yoriy-huquqiy bazani tahlil qilish hamda takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish va maqsadli xarajatlarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. “Birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning rahbarlari o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish, byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi, tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan

¹ <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2023/04/24/the-false-dichotomy-between-more-more-effective-public-spending-on-education-lessons-from-country-experiences>

ajratiladigan mablagʻlarning toʻgʻri taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi”² kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda byudjet mablagʻlari boʻyicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan maqsadli mablagʻlarning ishlatilmay qolgan qismini davlat byudjetiga qaytarish, oliy taʼlim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablagʻlari hajmini hisoblash metodikasini takomillashtirish, ortiqcha rejalashtirilgan yoki ishlatilmagan deb belgilangan mablagʻlarni chegirib tashlash va ularni ish haqi, nafaqalar va ayrim xizmatlarni moliyalashtirish uchun qayta taqsimlash, byudjet tashkilotlarida nazorat tadbirlari samaradorligini oshirish maqsadida masofaviy nazorat takomillashtirish masalalari tadqiqiga yoʻnaltirilgan ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligini namoyon etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son “Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarning samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish toʻgʻrisida”, 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-son “Oʻzbekiston Respublikasining “2023-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonuni ijrosini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-son “Oʻzbekiston Respublikasining “2022-yil Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonunning ijrosini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablagʻlarni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligini

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda “Oʻzbekiston Respublikasining “2023-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi qonuni ijrosini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-471-son qaror

oshirishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar C.T.Horngren, F.K.Kinyua, S.Sponem, C.Vandierendonck, N.Vasilyeva³, MDH olimlaridan E.Axmeytshin, Yu.K.Baranova, N.A.Kazakova, G.B.Polyak, S.O.Shoxinlarni⁴ kiritish mumkin.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan T.Malikov, N.Xaydarov, O.Olimjonov, T.Eshnazarov, M.Mansurov, D.A.Raxmonov, H.Qurbonov, M.X.Temirov, L.N.Xazratkulova, F.M.Ollokulova⁵ ilmiy ishlarida byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishga oid nazariy va metodologik asoslarning ayrim jihatlari o‘rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining uslubiy asoslari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

³ Horngren, C. T. Forster, G. & Dater, D. (2012). Cost Accounting: A managerial Emphasis, San Francisco, Simon and Schuster co; Kinyua, F. K. (2015), The Relationship between Budgetary Control and Financial Performance of the Insurance Companies in Kenya (Master’s Thesis, School of Business, University of Nairobi); Sponem, S., & Lambert, C. (2016). Exploring differences in budget characteristics, roles and satisfaction: A configurational approach. *Management Accounting Research*, 30, 47-61. doi: 10.1016/j.mar.2015.11.003; Vandierendonck, Caroline. 2014. “Public Spending Reviews: Design, Conduct, Implementation.” *Economic Papers* 525, European Commission, Brussels; Vasilyeva, N.: Control of targeted spending of state funds by budget organizations: *International Journal of Economics and Financial Issues*: October 2019 Pages: 346-352

⁴ Akhmetshin, E. Improving control over the targeted use of budgetary funds in Kyrgyzstan: *Journal of Economic Policy and Regulation*: August 2020 Pages: 57-64; Baranova Yu.K. Gosudarstvennyy finansovyy (byudjetnyy) kontrol segodnya // *Sotsialno-ekonomicheskkiye yavleniya i protsessyy*. — 2018. — T. 13. № 1. — S. 87-91; Kazakova N.A. *Sovremennyye paradigmy i metody analiza i kontrolya byudjetnoy effektivnosti: monografiya* / N.A. Kazakova, Ye.A. Fedchenko, L.B. Trofimova. — M.: INFRA-M, 2014. — 270 s.; Polyak G.B. *Gosudarstvennyye i munitsipalnyye finansyy: Uchebn. posobiye/ Red. G.B. Polyak. — 3-ye izd., pererab. i dop. — M.: YUNITI-DANA, 2008. — 375 s.; Shoxin S.O. Mejdunarodnyye standartyy gosudarstvennogo finansovogo kontrolya: osobennosti pravovogo regulirovaniya. Uchebnoye posobiye / S.O.Shoxin. — Moskva: Prometey, 2020. — 294 s. — Tekst: neposredstvennyy.*

⁵ Malikov T., Xaydarov N. Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2007.; 1.29. Malikov T., Olimjonov O. Moliya (darslik) / Toshkent. Iqtisod-moliya -Toshkent, 2019.; Eshnazarov T., Mansurov M. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2015.; Qurbonov H., Bijanova M. Davlat byudjeti xarajatlarning amaldagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardagi ahamiyati. *Biznes-daily.uz/ru*. 27 okt. 2015 g. Nomer: №9 (93)-2015.; Raxmonov D.A. O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d. avtoreferat. — Toshkent, TDIU. — 2018. — 72 bet.; Temirov M.X. O‘zbekiston Respublikasida davlat moliya tizimini isloh qilishning istiqbolli yo‘nalishlari. i.f.d.(PhD) dissertatsiyasi himoyasi avtoreferati, 2019.; Xazratkulova L.N. *Sotsialno-ekonomicheskoye razvitiye gosudarstv yevrazii i drugix zarubejnyx stran. J:Problemy sovremennoy ekonomiki*, №4 (84), 2022.; Ollokulova F. M. Mahalliy byudjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo‘nalishlari (Surxondarè viloyati misolida) i.f.d.(PhD) dissertatsiyasi himoyasi avtoreferati, 2022.;

Tadqiqotning maqsadi byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat moliyasini boshqarish, byudjet tashkilotlari va nazorat mexanizmlari amal qilishining nazariy asoslarini tadqiq etish;

byudjet tashkilotlarida mablag'larning taqsimlanishi va sarflanishini nazorat qilish bo'yicha muammolar va ilg'or xorijiy tajribalar bo'yicha mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish;

byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larning maqsadli sarflanishini tartibga soluvchi huquqiy bazani ko'rib chiqish;

tanlangan byudjet tashkilotlarining mablag'lardan foydalanish amaliyoti va nazorat mexanizmlari samaradorligini baholash uchun amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

mablag'larning taqsimlanishi va maqsadli sarflanishi ustidan nazorat mexanizmlari samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

nazorat jarayonlarini optimallashtirish uchun huquqiy, axloqiy, tashkiliy va texnologik yondashuvlarning ahamiyatini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi fan va ta'limga oid muassasalar faoliyati olingan.

Tadqiqot predmeti byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligini nazariy, amaliy va uslubiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, reyting baholash, statistik va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan maqsadli mablag'larning ishlatilmay qolgan qismini moliya yili oxirida belgilangan tartibda Davlat byudjetiga qaytarish orqali byudjet taqchilligining oldini olish va muvozanatli byudjetni saqlash, resurslarni taqsimlashni optimallashtirish, byudjetni

boshqarish shaffofligini oshirish, fiskal mas'uliyatga sodiqlikni ta'minlash asoslangan;

oliy ta'lim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag'lari hajmini hisoblash metodikasi har bir talaba uchun turli xarajatlarni hisobga olgan holda resurslarni samarali taqsimlashni ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

byudjet tashkilotlari tomonidan ortiqcha rejalashtirilgan yoki ishlatilmagan deb belgilangan mablag'larni chegirib tashlash va ularni ish haqi, nafaqalar va ayrim xizmatlarni moliyalashtirish uchun qayta taqsimlash taklifi asoslangan;

byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat samaradorligini muntazam tekshiruv tadbirlari ustuvorligi ta'minlash imkonini beruvchi masofaviy (kameral) nazorat asosida takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining shakllanish xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslangan;

oliy ta'lim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag'lari hajmini hisoblash formulasi ishlab chiqilgan;

byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishini ta'minlovchi institutsional mexanizmlar yoritib berilgan;

byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishning asosiy tashkiliy mexanizmlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi moliyaviy nazorat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli

sarflanishi nazorati samaradorligini oshirishga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag'larini maqsadli sarflanishi, byudjet tashkilotlarida mablag'larning taqsimlanishi va sarflanishini nazorat qilish, davlat moliyasini boshqarish, byudjet tashkilotlari va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, mablag'larning maqsadli sarflanishini tartibga soluvchi huquqiy bazani va byudjet-soliq siyosati konsepsiyasi loyihalarini ishlab chiqishda, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan respublikada faoliyat ko'rsatayotgan moliya va tegishli nazorat organi xodimlariga metodik qo'llanma sifatida byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi bo'yicha darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasida rejalashtirilgan maqsadli mablag'larning ishlatilmay qolgan qismini moliya yili oxirida belgilangan tartibda Davlat byudjetiga qaytarish orqali byudjet taqchilligining oldini olish va muvozanatli byudjetni saqlash, resurslarni taqsimlashni optimallashtirish, byudjetni boshqarish shaffofligini oshirish, fiskal mas'uliyatga sodiqlikni ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi "Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to'g'risida" 419-son qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 20-oktyabrdagi 06/33-2-4379-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida davlat mablag'larining bo'sh qolmasligi yoki maqsadsiz foydalanilmasligini ta'minlash orqali byudjet jarayonining yanada samarali va hisobdorligiga hissa qo'shish imkoni yaratilgan;

oliy ta'lim muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag'lari hajmini hisoblash metodikasi har bir talaba uchun turli xarajatlarni hisobga olgan holda resurslarni samarali taqsimlashni ta'minlash asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi "Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to'g'risida" 419-son qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 20-oktyabrdagi 06/33-2-4379-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida byudjet qarorlari qanday qabul qilinishini tushuntirishning tizimli usulini taqdim etish, bu manfaatdor tomonlarga xarajatlarni oqlashni osonlashtirish imkoni yaratilgan;

byudjet tashkilotlari tomonidan ortiqcha rejalashtirilgan yoki ishlatilmagan deb belgilangan mablag'larni chegirib tashlash va ularni ish haqi, nafaqalar va ayrim xizmatlarni moliyalashtirish uchun qayta taqsimlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-martdagi "Moliya vazirligi huzurida davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish hamda byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 129-son qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 20-oktyabrdagi 06/33-2-4379-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida foydalanilmagan yoki ortiqcha rejalashtirilgan mablag'larni qayta taqsimlash resurslardan foydalanishni optimallashtirish imkoni yaratilgan;

byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat samaradorligini muntazam tekshiruv tadbirlari ustuvorligi ta'minlash imkonini beruvchi masofaviy (kameral) nazorat asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-son qaroriga ilova O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining barqarorligini ta'minlash va xarajatlarning samaradorligini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 20-oktyabrdagi 06/33-2-4379-sonli

ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida byudjet mablag'larining noqonuniy talon-taroj qilinishi va moliyaviy huquqbuzarliklarning oldi olish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 betni tashkil etadi.

I BOB. BYUDJET TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISH VA MABLAG‘LARNI MAQSADLI SARFLANISHI NAZORATINING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Byudjetlashtirish va byudjet nazoratining nazariy masalalari

Byudjet tashkilotlari har qanday iqtisodiy tizimda va har qanday boshqaruv modelida ishlab chiqarish va moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning muhim subyektlari hisoblanadi. Ular ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy himoya, madaniyat, davlat boshqaruvi kabi qator ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishni ta’minlashga mo‘ljallangan. Byudjet tashkilotlari davlatimizda faoliyat yuritayotgan eng yirik tashkilotlardan biri hisoblanadi. Bular davlat va mahalliy byudjetlar hisobidan ta’minlanadigan muassasalar, tashkilotlardir. Mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning yarmidan ko‘pi davlat byudjeti tizimiga safarbar etilgan. Bu mablag‘lar asosan byudjet tashkilotlarining hisob-kitoblariga sarflanadi. Bu byudjet tashkilotlari moliyasining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatining katta ta’sirga ega ekanligini belgilaydi. Hozirgi vaqtda ko‘plab tashkilotlarning mavjudligini faqat ularning moliyaviy ko‘rsatkichlari nuqtayi nazaridan oqlash mumkin. Shuning uchun bunday tashkilotlar uchun ularning moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilaydigan har qanday narsa foydalidir.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotimizni byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag‘larni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligi mavzusi bo‘yicha olib borishni rejalaganmiz.

Ushbu tadqiqot doirasida biz tushunishimiz kerak bo‘lgan tushunchalar: “byudjet tashkilotlari”, “byudjetlashtirish”, “byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish” va “byudjet nazorati”dir. Ushbu tushunchalarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish, tadqiqotimiz oldiga quygan masalani yechimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, Anessi-Pessina va boshqalar fikrini keltiradigan bo‘lsak: “Byudjet — bu aniq vaqtdan oldin tuzilgan tashkilot faoliyatining moliyaviy va miqdoriy hisoboti. U menejerlar va siyosatchilarga o‘zlari javobgar bo‘lgan strategik

qarorlarni qabul qilishda yordam berish uchun moliyaviy ma'lumotlar bilan ta'minlaydi"⁶.

S.T.Horngren va boshqalar talqinicha esa: "Ko'pgina daromadli kompaniyalarda byudjet aslida muvaffaqiyatning kalitidir"⁷.

S.Sponem va S.Lambert fikricha: "Byudjetlar ko'pchilik tashkilotlarning ajralmas qismi bo'lib, turli boshqaruv funksiyalarini bajaradi. Byudjetlar ko'pchilik tashkilotlarning ajralmas qismi bo'lib, rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish va qarorlar qabul qilishning asosiy boshqaruv funksiyalarini qo'llab-quvvatlaydi"⁸.

A.Bourmistrov va K.Kaarboe fikricha: "Har qanday yirik tashkilotda, xususan, davlat sektorida qarama-qarshi siyosat maqsadlari mavjud bo'lib, ularning barchasi turli xil manba ta'siriga ega bo'lib, kapital yoki daromad oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli, samarali byudjetlashtirish jarayoni muqobil siyosat maqsadlarining barcha moliyaviy oqibatlarini baholashga imkon berishi kerak, bu esa siyosatchilarga ularni baholash va xarajatlarni mavjud resurslar bilan solishtirish imkonini beradi"⁹.

"Byudjet muassasasi, shuningdek, asosiy faoliyat turlari bo'lmagan boshqa faoliyat turlarini, faqat o'zi yaratilgan maqsadlarga erishishga xizmat qiladigan va ko'rsatilgan maqsadlarga mos keladigan darajada, agar uning ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan bunday faoliyat mavjud bo'lsa, amalga oshirishga haqlidir"¹⁰.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 4-moddasida "Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot byudjet tashkilotidir"¹¹ deb ta'riflangan.

⁶ Anessi-Pessina et al.(2012). Public sector budgeting in European accounting and public management journals: a review Presented at 7th International Conference on Accounting, Auditing & Management in Public Sector Reforms, Rome.

⁷ Horngren, C. T. Forster, G. & Dater, D. (2012).Cost Accounting: A managerial Emphasis, San Francisco, Simon and Schuster co

⁸ Sponem, S., & Lambert, C. (2016). Exploring differences in budget characteristics, roles and satisfaction: A configurational approach. Management Accounting Research, 30, 47-61. doi:10.1016/j.mar.2015.11.003

⁹ Bourmistrov, A and Kaarboe, K.(2013). From comfort to stretch zones, a field study of two multinational companies applying beyond budgeting ideas Manage.

¹⁰ Gribov V. D. Ekonomika organizatsii (predpriyatiya): uchebnik 6-ye izd. – Moskva. – 2014. – 416 s.

¹¹ O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni

J.Bette o'z tadqiqotlarida "Byudjetlashtirish moliyaviy muvaffaqiyat uchun juda muhimdir. Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz yangi korxonalar o'rtasidagi farqlarni o'rganish doimiy ravishda byudjetlarni puxta ishlab chiqadigan va ularga rioya qiladigan korxonalar omon qolish va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshirishini aniqlaydi. Byudjetlashtirish — bu byudjetlarni tuzish va keyinchalik ularga iloji boricha qat'iy rioya qilish jarayoni"¹² – deb ta'kidlagan.

S.T.Horngren va boshqalar byudjetlarning mohiyatini quyidagicha izohlashgan: "Byudjetlarni tavsiflash uchun ishlatiladigan atamalar kompaniyalar orasida farq qiladi. Ba'zi kompaniyalar byudjetlashtirishni maqsadli deb atashadi va ko'p kompaniyalar byudjetni foyda rejasi deb atashadi"¹³.

"Samarali byudjet tuzish to'g'ri tashkiliy tuzilishga bog'liq. Bunday tuzilmada faoliyatning barcha bosqichlari uchun vakolat va javobgarlik aniq belgilangan. Tadqiqot va tahlillarga asoslangan byudjetlar kompaniyaning o'sishi va rentabelligiga hissa qo'shadigan real maqsadlarga olib kelishi kerak. Bundan tashqari, byudjet dasturining samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri boshqaruvning barcha darajalari tomonidan qabul qilinishi bilan bog'liq"¹⁴.

Byudjetlashtirish kompaniyaning strategiyasi bilan birlashtirilganda eng foydali hisoblanadi. Tashkiliy maqsadlar, strategiyalar va uzoq muddatli rejalar ishlab chiqilgandan so'ng, kompaniyalar byudjetlarni tayyorlaydilar. Byudjetni ishlab chiqishda menejmentning har bir darajasi ishtirok etishga taklif qilinishi kerak. Byudjetlar, ehtimol, eng ko'p qo'llaniladigan boshqaruv qurilmalaridir. Byudjet nazorati turli funksiyalarni to'g'ri rejalashtirish va muvofiqlashtirish, turli xil kapital va daromadlar xarajatlarini to'g'ri nazorat qilish va resurslardan maksimal darajada foydalanish orqali tashkilotning foydasini maksimal darajada oshirishga qaratilgan faoliyatdir¹⁵.

¹² Batty, J. (1970), *Corporate Planning and Budgeting Control*, London, MacDonald and Evans Ltd

¹³ Horngren, C.T. Forster, G. & Dater, D. (2012). *Cost Accounting: A managerial Emphasis*, San Francisco, Simon and Schuster co

¹⁴ Preetabh (2010), *Advantage of Budgetary Control*. Retrieved from: <http://expertscolumn.com/content/advantages-budgetary-control>.

¹⁵ Preetabh (2010), *Advantage of Budgetary Control*. Retrieved from: <http://expertscolumn.com/content/advantages-budgetary-control>.

Byudjet nazorati — bu tovar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning barcha jihatlarini rejalashtirish va nazorat qilish vositasi sifatida byudjetdan foydalanadigan tizim. Bu to'g'ri, chunki biz xijolat bo'lmaslik uchun rahbariyat kuzatishi kerak bo'lgan kelishmovchiliklar sohasini aniqlash uchun daromadlar va xarajatlarning tafovuti tahlilini tayyorlaymiz, chunki har qanday salbiy tafovutlar korporativ maqsadlarga erisha olmaslikka olib keladi va natijada manfaatdor tomonlar bilan kelishmovchilikka olib keladi¹⁶.

Byudjet nazoratini to'g'ri rejalashtirishni amalga oshirish orqali firma byudjetdan ajratilgan mablag'lar asosida xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilashga qodir. Bu xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi va maqsadlarga erishish, shuning uchun tashkiliy samaradorlikni oshiradi. Byudjet tuzish orqali menejerlar o'z sa'y-harakatlarini tashkilotning maqsadlari uning qismlari maqsadlariga mos kelishi uchun muvofiqlashtiradilar. Nazorat byudjetlarda belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlaydi¹⁷.

Byudjet nazorati — bu xarajatlar rejasini ishlab chiqish va uni yoki xarajatlar sxemalarini yo'lda qolish uchun tuzatish zarurligini aniqlash uchun vaqti-vaqti bilan ushbu reja bilan haqiqiy xarajatlarni solishtirish jarayoni. Bu jarayon xarajatlarni nazorat qilish va turli moliyaviy maqsadlarga erishish uchun zarur. Tashkilotlar o'zlarining xarajatlarini boshqarishda ko'p jihatdan byudjet nazoratiga tayanadilar va bu usul davlat va xususiy sektor tomonidan ham qo'llaniladi¹⁸.

L.N.Fonjong tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar byudjet nazorati va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatadi va menejerlarni byudjetlashtirish jarayoniga jalb qilish va biznesning maqsad va vazifalariga erishishda yordam berish uchun menejerlarni rag'batlantirish orqali yaxshi motivatsion ta'sir ko'rsatadi¹⁹.

¹⁶ Batty, J. (1982), *Accounting for managers*, 2nd edition, London, Heinemann Publishers.

¹⁷ Churchill, G.A. (2001), *Marketing Research: Methodological Foundations*. Fort Worth: The Dryden Press.

¹⁸ Dunk, A. S. (2009). Budget Emphasis, Budgetary Participation and Managerial Performance: A Note Accounting, *Organization and Society*, Vol.14, No.4.

¹⁹ Fonjong, L. N. (2007), *The Challenges of No PBO governmental Organizations in Anglophone Cameroon*. New York: Nova Science Publishers, Inc

Aytish mumkinki, byudjet nazorati tashkilotning moliyaviy ko'rsatkichlarida imtiyozlarni amalga oshirishga olib keladigan asosiy vositalardan biridir. Byudjet nazorati byudjetni tayyorlash, haqiqiy yutuqlarni qayd etish, real va byudjet ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash va tekshirish va byudjet ko'rsatkichlariga samarali erishish uchun tegishli tuzatish choralarini ko'rishni o'z ichiga oladi²⁰.

Bizga ma'lumki, xalqaro amaliyotda davlatlar xarajatlarga ustuvorliklarini aniqlashga yordam berish va fiskal natijalarga ta'sir qilish uchun turli byudjet amaliyotlarini qo'llaydi. Ammo barcha byudjet amaliyotlari istalgan fiskal maqsadlarga erisha olmaydi va ba'zi amaliyotlar ularning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini buzishi ham mumkin.

Har bir byudjet siklida hukumatlar xarajatlarning ustuvor yo'nalishlari va soliq stavkalari to'g'risida qaror qabul qiladi va ularning har biri fiskal natijalarga ta'sir qiluvchi turli amaliyot va qoidalarni qabul qiladi. Davlatlar iqtisodiy tanazzul davrida fiskal cheklovlarni va barqarorlikni ta'minlash vositalari sifatida balanslangan byudjet talablarini, byudjetni barqarorlashtirish jamg'armalarini va boshqa byudjet institutlarini qabul qildilar. Shuningdek, ular byudjetlashtirish siklidan, daromadlarni hisoblash usullaridan, qarz limitlari va byudjetlashtirishning asosiy ko'rsatkichlaridan xarajatlarni rejalashtirish va ustuvorliklarini belgilash vositalari sifatida foydalanganlar. Afsuski, hamma byudjet amaliyotlari istalgan fiskal maqsadlarga erisha olmaydi va ba'zi amaliyotlar davlatlarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini buzishi ham mumkin.

Bugungi kunda byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larning maqsadli sarflanishi natijasi qanchalik samaradorligini aniqlash masalasi juda dolzarb bo'lib, byudjet xarajatlarining samarasiz oshishini oldini olishga xizmat qiladi. Agar mablag'lar besamar sarflansa, albatta, byudjet profitsitiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ko'plab iqtisodiy ziyonlarga sabab bo'lishi va teskari defetsitga olib kelishi mumkin. Shuning uchun har bir qilingan sarf xarajatlarni to'g'ri tahlil qilish

²⁰ Kinyua, F. K. (2015), The Relationship between Budgetary Control and Financial Performance of the Insurance Companies in Kenya (Master's Thesis, School of Business, University of Nairobi).

va uning daromad va xarajatlar mutanosibligini aniqlashtirib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu bo'yicha ham ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz, so'ngra hukumat darajasida O'zbekiston Respublikasining byudjeti daromadlari va xarajatlarini taqqoslab, uning joriy holatini tahlil qilamiz.

Ye.S.Sergushina bu borada o'z tadqiqotida quyidagilarni bayon qilgan: "Byudjet tashkilotlarining moliyaviy tahlili uni boshqa turdagi tashkilotlar tahlilidan ajratib turadigan bir qator xususiyatlarga ega. Byudjet tashkilotlarining moliyaviy tahliliga ta'sir qiluvchi asosiy omillar:

- moliyalashtirish manbalarini ajratish. Byudjet tashkilotlari, qoida tariqasida, ham byudjet, ham byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalariga ega. Shu munosabat bilan xarajatlarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha alohida hisobga olish kerak. Shuningdek, tahlil aniq tahlilni amalga oshirish uchun boshqa ko'rsatkichlar to'plamidan foydalanadi;

- byudjet muassasasining moliyaviy holatini tahlil qilishda foydalanish mumkin bo'lgan to'liq bo'lmagan ko'rsatkichlar majmui. Ko'pgina iqtisodiy ko'rsatkichlar, masalan, foyda, rentabellik yoki moliyaviy barqarorlik byudjet tashkilotlariga taalluqli emas;

- byudjet tashkilotlarida mulkdor maqomining yo'qligi. Byudjet tashkilotining barcha mulki, qoida tariqasida, davlat mulki hisoblanadi. Binobarin, mulkni sotish amalga oshirilmaydi va tahlilda likvidlik ko'rsatkichlaridan foydalanish mantiqiy ma'noga ega emas"²¹.

A.Yu.Antipov esa, "Byudjet muassasalarining moliyaviy tahlili amalga oshirilganda bir qator afzalliklarga ega:

- moliyaviy tahlil tashkilotdagi byudjet hisobi ma'lumotlarini doimiy nazorat qilish imkonini beradi;

²¹ Sergushina Ye.S. Napravleniya sovershenstvovaniya buxgalterskoy otchetnosti i analiza yee pokazateley / Ye.S. Sergushina, A.A. Mal'uykina // Novaya nauka: Strategii i vektory razvitiya. – 2016. – № 4. – S. 188–190.

- moliyaviy tahlil buxgalteriya hisobi registrlari ma'lumotlaridagi, shuningdek, hisob-kitoblar korrespondensiyasidagi xato va noaniqliklarni aniqlash imkonini beradi;

- tizimli tahlil foydalanilmayotgan zahiralarni, shuningdek, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini beradi;

- byudjet moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish boshqaruv siyosatini shakllantirish va mavjud resurslardan samarali foydalanish bo'yicha takliflarni shakllantirish imkonini beradi"²².

Har qanday tahlil singari, byudjet tashkilotlarining moliyaviy tahlili tashkilotlarda amalga oshirilganda bir qator kamchiliklarga ega:

- moliyaviy tahlilni amalga oshirish uchun tahlilni bevosita amalga oshiradigan xodimlarning muayyan malakasi va tayyorgarligi talab qilinadi;

- byudjet tashkilotida moliyaviy tahlil jarayonining murakkabligi;

- noto'g'ri boshqaruv qarorlariga olib kelishi mumkin bo'lgan hisob-kitoblardagi mumkin bo'lgan xatolar;

- har bir soha bo'yicha samarali tahlil metodologiyasining yo'qligi. Qoida tariqasida, ma'lum bir byudjet muassasasida tahlil o'tkazish jarayonida tuzatilgan universal usullar qo'llaniladi²³.

Byudjet muassasasining daromadlari va xarajatlarini tahlil qilish kelgusi moliyaviy yil uchun byudjet rejasini tuzatish uchun xarajatlar yoki daromadlar ko'rsatkichlarining o'sishi yoki kamayishini batafsil kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu tahlil hisobot yilidagi boshqaruv qarorlari byudjet tashkilotining yakuniy moliyaviy natijasiga qanday ta'sir qilganligini tushunishga imkon beradi²⁴.

Tahlil obyektlari sifatida tahlil qilinayotgan tarmoqning har qanday iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'lishi mumkin. Byudjet tashkilotini yaratish maqsadlari va bajariladigan funksiyalarga qarab, muassasalarning iqtisodiy faoliyatini noishlab

²² Antipov A. Yu. Struktura byudjeta munitsipalnogo obrazovaniya. M.: Laboratoriya knigi, 2012. 127 s

²³ Tyapkina M.F., Vlasova I.O. Potensial predpriyatiya: podxody k opredeleniyu i otsenke // Vestnik IrGSXA. 2015. № 66. S. 154–160.

²⁴ Kasrova F.A. Analiz effektivnosti rasxodovaniya byudjetnykh sredstv v obshchobrazovatelnykh organizatsiyax Respubliki Severnaya Osetiya. [Elektronnyy resurs] // Elektronnyy jurnal "Yevraziyskiy Soyuz Uchenykh": ofitsial. sayt. – Rejim dostupa: <https://elibrary.ru/item.asp?id=27642236>

chiqarish sohasi sohalari kontekstida tahlil qilish zarurati tugʻiladi. Bularga: maktabgacha taʼlim muassasalari, umumtaʼlim va oliy oʻquv yurtlari, sogʻliqni saqlash tashkilotlari, madaniyat, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqalar kiradi²⁵. Yuqoridagi tashkilotlarning har birining xoʻjalik faoliyati byudjet tashkiloti faoliyatini tahlil qilish obyekti hisoblanadi²⁶.

Maktabgacha taʼlim muassasalari faoliyatining asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlari bolalar soni, guruhlar soni, maktabgacha taʼlim muassasasiga boradigan kunlar (bolalar-kunlar), guruhlarning bandligi va oʻrinlar soni²⁷.

1.1-jadval.

Oʻzbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 2018 — 2022 yil ijrosi tahlili²⁸, mlrd.soʻm

Koʻrsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
JAMI	79099,1	112165,4	132938,0	164799	202043
Bevosita soliqlar	15656,2	31 676,8	45 206,9	58 930	64 447
Bilvosita soliqlar	41280,4	46 427,2	46 428,4	56 290	71 390
Resurs toʻlovlari va mulk soligʻi	12663,4	19 680,7	21 257,0	23 036	23 913
Yuqori daromaddan olinadigan soliq	1 528,0	-	-	-	-
Boshqa daromadlar	7 971,1	14 380,7	20 045,8	26 542	42 293

Boshqa byudjet tashkilotlari uchun boshqa iqtisodiy koʻrsatkichlar tahlil qilish uchun xos boʻladi. Shuni taʼkidlash kerakki, moliyalashtirish tahlilini oʻtkazishdan oldin, bu sohani va byudjet muassasasining oʻziga xos xususiyatlarini diqqat bilan oʻrganish kerak. Tahlilning aniqligi va ishonchliligi toʻgʻri tanlangan iqtisodiy koʻrsatkichlarga va tanlangan tahlil metodologiyasiga bogʻliq boʻladi.

²⁵ Pankov D.A., Golovkova Ye.A., Pashkovskaya L.V. (2003) Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti byudjetnyx organizatsiy: ucheb. posobiye / M.: Novoye znaniye, 409 s.

²⁶ Sidorenko O.V. Metodicheskiye napravleniya kompleksnogo ekonomicheskogo analiza xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiy // Ekonomicheskij analiz: teoriya i praktika. 2004. № 18. S. 37–39.

²⁷ Taraskina A.V., Chirikova I.V. Razvitiye metodiki analiza deyatelnosti byudjetnyx uchrejdeniy kak instrument povysheniya effektivnosti upravleniya gosudarstvennymi finansami // Ekonomicheskij analiz: teoriya i praktika. 2010. № 28. S. 23–33.

²⁸ Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2018-2022-yillardagi byudjet parametrlaridan foydalanilib, muallif tomonidan shakllantirildi.

Endi olimlarni byudjet tashkilotlarida moliyaviy holatni tahlil qilish to'g'risidagi fikrlarini biz mamlakatimiz yaxlit davlat byudjeti holatida tahlil qilsakda, joriy holatni bir-biriga o'zaro taqqoslasak.

1.1-jadvalda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 2018 — 2022-yil ijrosi tahlil qilingan bo'lib, byudjet daromadlari o'sish tendensiyasiga ega. Byudjet daromadlarining asosiy qismini soliq tushumlari tashkil etib, 5 yil advomida o'sish keskin o'zgargan, ya'ni 2022-yilda 2018-yilga nisbatan o'sish, deyarli 3 barobarni tashkil etmoqda.

1.2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining 2018 — 2022 yil ijrosi tahlili²⁹, mlrd.so'm

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
JAMI (Xarajatlar)	79 736,1	118008,7	143921,0	188257,1	236578,5
Ijtimoiy xarajatlar	42 883,3	63 542,4	74 229,0	92 013,6	117722,4
Iqtisodiyot xarajatlari	8 461,8	18 485,2	16 064,6	21 169,7	33 859,0
Investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish	5 396,4	7 048,5	18 885,0	29 900,1	27 695,9
Davlat boshqaruvi, adliya, prokuratura va sud organlarini saqlash xarajatlari	3 052,7	5 315	7 798,2	9 329	12 786,6
O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	613,3	701,1	816,6	1 037,1	965,4
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari	604,1	985,4	1 506,2	1 401,8	
Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa inistitutlarini qo'llab-qo'vvatlash xarajatlari	17,8	37,8	47,5	95,6	103,5
Davlat qarzlari xizmat ko'rsatish va qoplash xarajatlari		1 089,2	1 638,1	2 238,2	3 528,5
Boshqa xarajatlar	18 706,6	20 804,1	22 935,9	31 072,1	38 008,8
JAMI (Daromadlar)	79 099,1	112165,4	132938,0	164 799	202043
Profitsit (+) yoki defitsit (-)	-637	-5 843,3	-10 983	-23 458,1	-34 535,5

1.2-jadvalda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining 2018 — 2022-yil ijrosi tahlil qilingan bo'lib, e'tiborlisi davlat byudjeti xarajatlari o'sish tendensiyasiga ega. 2005-yildan buyon O'zbekiston Respublikasida profitsit

²⁹ Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2018-2022-yillardagi byudjet parametrlaridan foydalanilib, muallif tomonidan shakllantirildi.

holatida bo'lgan bo'lsa, 2018-yildan keyin xarajatlar daromadlardan keskin oshib, defitsit vujudga kelayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilib ko'raylik, xarajatlarning oshishi qaysida yuqori ekanligi va sabablarini izohlashga harakat qilamiz. Avvalo, jami xarajatlar 2018-yilda 79 736,1 mlrd.so'm, 2019-yilda 118 008,7 mlrd.so'm, 2020-yilda 143 921,0 mlrd.so'm, 2021-yilda 188 257,1 mlrd.so'm, 2022-yilda 236 578,5 mlrd.so'mni tashkil etgan va salbiy defitsit mos ravishda -637 mlrd.so'm, -5 843,3 mlrd.so'm, -10 983 mlrd.so'm, -23 458,1 mlrd.so'm va -34 535,5 mlrd.so'mni tashkil etib, oldingi defitsitga nisbatan ham ko'rsatkichlari salbiy tomonga o'zgarayotganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga ijtimoiy xarajatlar 2018-yilda 42 883,3 mlrd.so'm, 2019-yilda 63 542,4 mlrd.so'm, 2020-yilda 74 229,0 mlrd.so'm, 2021-yilda 92 013,6 mlrd.so'm, 2022-yilda 117 722,4 mlrd.so'mni tashkil etganligini alohida t'kidlash lozim, ya'ni ijtimoiy xarajatlar 2018-yilga nisbatan 2022-yilda deyarli 3 barobarga ortgan.

Yana e'tiborli jihat 2019-yildan boshlab Davlat byudjeti xarajatlari tarkibiga yangi ko'rsatkich, ya'ni davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish va qoplash xarajatlari ham qo'shilib, 2019-2022-yillarda umumiy hisobda 8 494 mlrd.so'mni tashkil etganligini ham alohida qayd etish lozim.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, davlat byudjetida xarajatlar so'nggi 5 yil davomida mutassil o'sib bormoqda. Ushbu muammolarning mavjudligi va ularning asosini aniqlashtirish kabi masalalar bor ekan, davlat byudjetini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi o'stidan nazorat o'rnatish zarurati oshib boraveradi. Davlat byudjeti mablag'larini doimiy ravishda nazoratini amalga oshirmas, byudjet xarajatlarning samarali yoki samarasiz ahamiyatini aniqlashtirmas ekanmiz mablag'larni maqsadli sarflanishi samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlashtira olmaymiz.

Davlatga qarashli tashkilotlarda byudjetlashtirish va byudjet nazorati va ularning korporativ maqsadlarni aniqlash va foyda olishdagi rolini tizimli ko'rib chiqqach, byudjetlashtirish va byudjet nazorati har qanday tashkilot uchun ajralmas vosita ekanligi to'g'risida xulosa qilish zarur. Byudjet va byudjet nazorati bilan

bog'liq masalalar har qanday tashkilot (ayniqsa, davlatga qarashli tashkilotlar) tomonidan puxta rejalashtirilsa va amalga oshirilsa, bu xarajatlarning pasayishiga va daromadlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, foydani maksimal darajada oshirishga olib keladi. Byudjetlashtirish va byudjet nazorati tashkilot faoliyati samaradorligini oshirishini ta'minlaydi.

Binobarin, byudjetlashtirish va byudjet nazorati boshqaruv samaradorligi va yuqori mahsuldorlikni oshirishga yordam beradi; byudjet tashkilotlarining mas'ul xodimlari byudjet ijrosi bo'yicha malaka oshirib, doimiy ravishda o'qitilishi kerak. Bu ularga byudjetning amaldagi qoidalariga rioya qilish muhimligini tushunishga imkon beradi va bu yo'qotishlarni minimallashtiradi.

1.2-§. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining shakllanish xususiyatlari va tafovutlari

Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish davlat idoralari, maktablar, shifoxonalar va notijorat tashkilotlari kabi davlat sektori tashkilotlarining faoliyati va dasturlarini qo'llab-quvvatlash uchun mablag'larni jalb qilish, taqsimlash va boshqarish jarayonini o'z ichiga oladi. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish murakkab va qiyin jarayon bo'lishi mumkin, chunki u ko'pincha bir nechta manfaatdor tomonlar, jumladan soliq to'lovchilar, benefitsiarlar va siyosatchilarning ehtiyojlari va talablarini muvozanatlashni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, byudjet tashkilotlari moliyalashtirishning turli manbalariga, jumladan, davlat ajratmalari, grantlar va xayriyalar, xizmatlar uchun to'lovlar, investitsiyalar, qarzlar, tashkilotlararo transfertlarga tayanadi. Moliyalashtirish manbalarining aralashmasi tashkilotning missiyasi, hajmi va moliyalashtirish talablariga qarab keng farq qilishi mumkin.

Davlat mablag'lari odatda byudjet tashkilotlari, xususan, davlat organlari va ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning eng katta manbai hisoblanadi. Ushbu mablag'lar ustuvorliklarni belgilash, moliyalashtirish darajasini aniqlash va turli dasturlar va tashkilotlarga mablag'larni taqsimlashni o'z ichiga olgan davlat byudjeti jarayoni orqali ajratiladi.

Kasalxonalar va sog‘liqni saqlash tashkilotlari odatda davlat dasturlari, shuningdek, xususiy sug‘urta kompaniyalari tomonidan moliyalashtiriladi. Ular, shuningdek, xizmatlar uchun to‘lovlar orqali daromad olishlari mumkin, lekin ular ko‘pincha davlat idoralari tomonidan tartibga solinadi.

S.A.Achimning fikricha: “Har qanday iqtisodiy faoliyatni qat’iy rejalashtirish bu faoliyatning muvaffaqiyati uchun muhim elementdir. Har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyatini rejalashtirishsiz atrofda voqelikdan uzib qo‘yishi mumkin edi ...bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyatni ta’minlash va rejalashtirish qobiliyati ushbu faoliyatning yashashi va rivojlanishini ta’minlaydi”³⁰.

Umuman olganda, byudjet atamasi ma’lum bir iqtisodiy subyektning ma’lum bir davr uchun bashorat qilinadigan daromadlari va xarajatlari ro‘yxatini (hujjatlarini) ifodalaydi. Ushbu yondashuv haqiqatga mos keladi, ammo batafsilroq tahlil qilinganda, bu ibora ilmiy intizom sifatida ko‘rilgan moliyaga xos bo‘lgan uslubiy toifani aks ettiradi. Shunga ko‘ra, byudjetni umumiy moliyaviy o‘ziga xos uslubiy jarayon sifatida talqin qilish mumkin, bu orqali u muayyan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va hajmini qanday amalga oshirilishini, bir tomondan, uni bajarish uchun resurslarni turli yo‘nalishlarga taqsimlashni boshqa tomondan, oldindan belgilangan maqsadlarni ko‘rsatadi.

“Byudjet — bu kelajakda amalga oshiriladigan tadbirlarga ishora qiluvchi bir qator moliyaviy va / yoki nomoliyaviy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan rejalashtirish hujjati. Byudjetlashtirish — bu byudjetga moliyaviy va / yoki nomoliyaviy elementlarni ro‘yxatga olish faoliyati”³¹.

“Byudjet — bu yaxshi qabul qilingan tushuncha. Biroq, zamonaviy iqtisodiy muhit biznes bo‘linmasidagi ichki tashkiliy muhitga, uning maqsad va vazifalariga erishishga qarab, tashkiliy boshqaruv maqsadlarida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda byudjetlashtirish ko‘lami turli xil ilmiy

³⁰ Achim, S.A., “Sistemul informațional contabil al transporturilor locale de călători”, Risoprint, Cluj-Napoca, 2009:33.

³¹ Achim S. A., “Contabilitate pentru manageri”, Risoprint, Cluj-Napoca, 2009a

pozitsiyalarni o‘z ichiga oladi, chunki bu iqtisodiy kategoriya jadal rivojlanmoqda va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib bormoqda, menejment, iqtisodiyot, boshqaruv, nazorat va boshqa sohalarida mutaxassislar tajribasini o‘z ichiga oladi. Byudjetlashtirishning predmeti, maqsadi va qo‘llanilishi uni amalga oshirish imkonini beradigan tamoyillari ko‘rib chiqildi. Byudjetlashtirish tamoyillarini ifodalash tashkilotdagi butun boshqaruv tsiklini tahlil qilish bilan bog‘liq va unga hissa qo‘shadi”³².

T.Blumentritt byudjetlashtirishni “tashkilotning moliyaviy resurslarini uning bo‘linmalari, faoliyati va investitsiyalariga taqsimlash jarayoni”³³ deb ta’riflaydi, S.T.Horngren va boshqalar byudjetni ma’lum bir davr uchun rahbariyat tomonidan taklif qilingan harakatlar rejasining miqdoriy ifodasi va ushbu rejani amalga oshirish uchun nima qilish kerakligini muvofiqlashtirish uchun yordam sifatida ko‘radi³⁴.

Byudjet muassasasi, shuningdek, asosiy faoliyat turlari bo‘lmagan boshqa faoliyat turlarini, faqat o‘zi yaratilgan maqsadlarga erishishga xizmat qiladigan va ko‘rsatilgan maqsadlarga mos keladigan darajada, agar uning ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilgan bunday faoliyat mavjud bo‘lsa, amalga oshirishga haqlidir³⁵.

Yuqoridagilarga qarab umumlashtiradigan bo‘lsak, *byudjet* — *bir iqtisodiy subyektning ma’lum bir davr uchun bashorat qilinadigan daromadlari va xarajatlarini yoritadigan hujjatlarning o‘zgartirilgan ro‘yxati bo‘lib, bu daromadlarni yoritish uchun kimga, qandayligiga, qanday xarakterli harakatlar amalga oshirilishiga qaror qilishni yoritadi.*

Byudjet muassasasi byudjet mablag‘laridan tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasiga muvofiq foydalanadi. Hisob-kitoblarning mavjudligi byudjetni samarali rejalashtirish va ajratilgan mablag‘lardan qat’iy maqsadli foydalanishni ta’minlaydi. Daromadlar va xarajatlar smetasida byudjet muassasasining ham davlat byudjetidan tashqari jamg‘armalari byudjetidan, ham tadbirkorlik faoliyatidan

³² Kira Gulpenko, Natalia Tumashik, Yulia Filiasova, Narine Ritman. Budgeting fundamentals analysis for the purposes of organizational budgetary policy development. January 2017MATEC Web of Conferences 106:08102. DOI:10.1051/mateconf/201710608102

³³ Blumentritt T., Integrating strategic management and budgeting, Journal of Business Strategy, 27 (6) (2006), pp. 73–79.

³⁴ Horngren, C.T., Stratton, G.L., Sutton, W.O., Teall, H.D., “Management Accounting”, 4th ed. Prentice Hall, Toronto, 2004.

³⁵ Gribov V. D. Ekonomika organizatsii (predpriyatiya): uchebnik 6-ye izd. –Moskva. – 2014. – 416 s.

olingan barcha daromadlari, shu jumladan, pullik xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar, davlat yoki kommunal mulkdan foydalanishdan olingan boshqa daromadlar aks ettirilishi kerak³⁶.

O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonunchilik ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish³⁷ O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi bilan amalga oshiriladi. Ushbu kodeksda byudjetga oid barcha qonunchilikning tartiblari keltirib o'tilgan bo'lib, ushbu qonunda nazarda tutilgan holatlar asosida byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Ma'lumki, byudjet daromad va xarajatlardan iborat bo'lib, asosiy urg'u mamlakat byudjetini to'g'ri shakllantirishdan iborat bo'ladi. Davlat byudjetining asosiy manbasi soliq tushumlari va boshqa daromadlardan iborat bo'lsa, byudjet xarajatlari esa davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funksiyalarini bajarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishiga byudjet mablag'larini yo'naltirilishda namoyon bo'ladi.

Avvalombor, byudjet xarajatlarini moliyalashtirish tartibiga to'xtalsakda, so'ngra byudjet tashkilotlarining moliyalashtirish manbalari hamda ulardagi mavjud muammolarga e'tiborni qaratsak uzviylik bo'lardi deb hisoblaymiz.

“Byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirishning tartibi quyidagilarni nazarda tutadi:

byudjet mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda byudjet va smeta-shtat intizomini mustahkamlash uchun byudjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish;

byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash) mexanizmini soddalashtirish va ushbu mablag'lardan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maqsadida mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash uchun imkoniyatlar yaratish;

³⁶ Berdnikova T. B. Analiz i diagnostika finansovo-xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya. Moskva: INFRA. – 2014. – 514 s.

³⁷ O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi “O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi” O'RQ-683-sonli Qonuni

Davlat byudjetidan mablag‘ oluvchilarning mablag‘larni sarflashlari ustidan dastlabki va joriy nazoratni ta’minlash;

byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish (to‘lash)ni ularning faoliyat ixtisosligi bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish faoliyatini kengaytirish bilan birga qo‘shib olib borish;

byudjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o‘rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish”³⁸.

Tadqiqotimizda byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllanish xususiyatlariga urg‘u qaratmoqchimiz. Byudjet tashkilotlarini samarali moliyalashtirish moliyaviy resurslarni puxta rejalashtirish, monitoring qilish va boshqarishni nazarda tutadi. Bunga byudjetlarni ishlab chiqish, xarajatlarni kuzatish va moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot berish kiradi. Shuningdek, u davlat me’yorlari va buxgalteriya hisobi standartlariga rioya qilishni ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi.

Olib borilgan tadqiqotlarga tayanib, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish davlat organlari, notijorat tashkilotlari va davlat byudjetlari hisobidan moliyalashtiriladigan boshqa subyektlarning faoliyati va dasturlarini qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslar bilan ta’minlash jarayonidir deb hisoblasak bo‘ladi. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish murakkab jarayon bo‘lib, turli moliyalashtirish manbalari, jumladan, davlat mablag‘lari, grantlar, xayriyalar, xizmatlar uchun to‘lovlar, investitsiyalar, qarzlar, tashkilotlararo transfertlarni o‘z ichiga oladi. Quyida 1.1-rasmda xalqaro amaliyotda mavjud bo‘lgan byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini keltirib o‘tganmiz.

³⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 26-apreldagi “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 122-sonli qarori tahririda.



1.1-rasm. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari³⁹

Endi ularga birma-bir batafsil to‘xtalsakda, mohiyatini ochishga harakat qilamiz. Bizga ma’lumki, ko‘pgina byudjet tashkilotlari uchun davlat mablag‘lari asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Ushbu mablag‘lar odatda davlat yoki mahalliy darajadagi davlat tashkilotlari tomonidan ajratiladi va ular tashkilot uchun asosiy byudjetni ta’minlaydi.

Grant va xayriya mablag‘lar — byudjet tashkilotlari, xususan, notijorat tashkilotlari va muayyan dasturlar yoki xizmatlarni taqdim etuvchi tashkilotlarni moliyalashtirishning yana bir muhim manbasidir. Grantlar davlat idoralari, xususiy jamg‘armalar yoki boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etilishi mumkin va ular odatda tashkilotdan ma’lum mezonlarga javob berishini va maxsus hisobot va javobgarlik talablariga muvofiqligini talab qiladi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari uchun xayriya va mablag‘ yig‘ish muhim moliya manbalari bo‘lib, ular o‘z dasturlari va operatsiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun jismoniy shaxslar, kompaniyalar va fondlarning beruvchi mablag‘lariga tayanadi. Shuni bilishimiz kerakki, bunday moliyalashtirish manbalari ko‘pincha o‘zgaruvchan bo‘lib, iqtisodiy sharoitlar, siyosiy vaziyat va boshqa omillar ta’sirida o‘zgarishi mumkin.

³⁹ Muallif tomonidan shakllantirilgan

Xizmatlar uchun to'lovlar — ayrim byudjet tashkilotlari, xususan, aholiga xizmat ko'rsatuvchi, masalan, bog'lar, muzeylar, kommunal xizmatlar uchun daromad manbai hisoblanadi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bunday to'lovlar tashkilot yoki davlat organlari tomonidan belgilanishi mumkin va ular ko'pincha tartibga solish va nazorat ostida bo'ladi.

Investitsiyalar — byudjet tashkilotlari, ayniqsa katta mablag'lar yoki zaxiralarga ega bo'lgan tashkilotlar uchun qo'shimcha daromad keltirishi mumkin. Biroq, investitsiyalar ham xavfga ega va tashkilotlar moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun o'zlarining investitsiya portfellarini ehtiyotkorlik bilan boshqarishlari kerak bo'ladi.

Qarz olish — byudjet tashkilotlari, xususan, kapital loyihalarni yoki boshqa uzoq muddatli tashabbuslarni moliyalashtirishga muhtoj bo'lgan tashkilotlar uchun muhim moliyalashtirish manbai bo'lishi mumkin. Qarz olish obligatsiyalar yoki boshqa qarz vositalarini chiqarishni o'z ichiga olishi mumkin.

Tashkilotlararo transfertlar — ayrim byudjet tashkilotlari, xususan, xizmatlar ko'rsatuvchi yoki boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiluvchi tashkilotlarni moliyalashtirish manbai hisoblanadi. O'tkazmalar davlat organlari, notijorat tashkilotlari yoki boshqa tashkilotlar o'rtasida pul mablag'lari yoki boshqa resurslar almashinuvini o'z ichiga olishi mumkin.

Byudjetni taqsimlash — byudjet tashkilotlari odatda davlat ajratmalari, grantlar va subsidiyalar kombinatsiyasi orqali moliyalashtiriladi. Hukumat iqtisodiyot uchun ustuvorligi va ahamiyatidan kelib chiqib, turli sohalarga mablag' ajratadi.

Xarajatlarni qisqartirish choralari — ba'zi hollarda byudjet tashkilotlari byudjetlarini muvozanatlash uchun o'z xarajatlarini kamaytirish talab qilinishi mumkin. Bu xodimlarni qisqartirish, xizmatlarni qisqartirish yoki boshqa xarajatlarni tejash choralari amalga oshirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Daromadlarni shakllantirish — byudjet tashkilotlari, shuningdek, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar, tovarlarni sotish va mulkni ijaraga berish kabi turli manbalardan daromad olishlari mumkin. Biroq, byudjet tashkilotlarining daromad

olish darajasi ko‘pincha cheklangan va ular hali ham davlat mablag‘lariga tayanishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik — ba’zi hollarda byudjet tashkilotlari xususiy kompaniyalar yoki tashkilotlar bilan davlat-xususiy sheriklik (DXSH) tuzishlari mumkin. DXSHlar byudjet tashkilotlari uchun qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini ta’minlashi mumkin, shu bilan birga davlat resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta’minlash orqali xususiy sherikka foyda keltirishi mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari turli omillarga, jumladan, tashkilotning maqsadlariga, davlat byudjetining ustuvor yo‘nalishlariga, tashqi manbalar hisobidan moliyalashtirishning mavjudligiga, tashkilotning yig‘imlardan daromad olish qobiliyatiga bog‘liq.



1.2-rasm. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishdagi tafovutlar⁴⁰

Endi yana shuni bilishimiz kerakki, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishda tashkilot turiga va u faoliyat yuritayotgan sharoitga qarab bir qancha asosiy tafovutlar mavjud bo‘lib, uni quyidagi 1.2-rasmda keltirganmiz.

⁴⁰ Muallif tomonidan shakllantirilgan

Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishdagi tafovutlarni ham birma-bir izohlimiz. Avvalo, byudjet tashkilotining turi, ya'ni har xil turdagi byudjet tashkilotlari har xil moliyalashtirish manbalariga ega. Masalan, davlat idoralari odatda davlat ajratmalariga tayanadi, notijorat tashkilotlar esa ko'proq grantlar va xayriya mablag'lariga tayanishi mumkin. Ta'lim muassasalari moliyalashtirishni turli manbalar, jumladan, davlat mablag'lari, shartnoma to'lovlari va xayriya mablag'lari hisobidan olishlari mumkin. Shuningdek, byudjet tashkilotining o'zi ham uning moliyalashtirish manbalarini shakllantirishga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, davlat shifoxonasi atrof-muhitni muhofaza qilish uchun mas'ul bo'lgan davlat organiga nisbatan boshqa moliyalashtirish manbalariga ega bo'lishi mumkin.

Davlat boshqaruvi darajasi bo'yicha byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari ham farqlanadi. Misol uchun, mahalliy hukumat tashkilotlari mulk solig'i va yig'imlariga ko'proq tayanishi mumkin, hukumat tashkilotlari esa davlat mablag'lari va grantlaridan ko'proq mablag' olishlari mumkin.

Huquqiy baza bo'yicha, unda moliyalashtirish manbalarini shakllantirishni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi turli mamlakatlar va qonunchiligiga qarab farqlanadi. Masalan, ba'zi mamlakatlarda byudjet tashkilotlari asosan davlat ajratmalariga tayanishi mumkin, boshqalarida esa grantlar, kreditlar va to'lovlar kabi boshqa moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyati kengroq bo'lishi mumkin.

Byudjet tashkiloti faoliyat yuritayotgan siyosiy muhit uning moliyalashtirish manbalarining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, hukumat tarkibidagi o'zgarishlar moliyalashtirish ustuvorliklarining o'zgarishiga va shunga mos ravishda tashkilot uchun mavjud bo'lgan moliyalashtirish manbalarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy sharoitlar ham byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bugungi kunda ko'p o'chraydigan iqtisodiy sharoitlar: inflyatsiya, retsessiya yoki valyuta kurslarining o'zgarishi kabi

iqtisodiy sharoitlar byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tashkiliy ustuvorliklar, xususan, byudjet tashkilotlarining ustuvor yo'nalishlari va maqsadlari moliyalashtirish manbalarini shakllantirishga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zi tashkilotlar uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni, boshqalari esa darhol daromad olishni birinchi o'ringa qo'yishi mumkin. Bu moliyalashtirish manbalarining turlariga ta'sir qilishi mumkin.

Yuqoridagi byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllanish xususiyatlari va tafovutlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, turli omillarni sinchiklab ko'rib chiqishni talab qiladi. Byudjet tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi, shu bilan birga o'z strategik maqsad va vazifalarini bajarishi uchun samarali moliyaviy boshqaruv muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida byudjet tashkilotlari uchun diversifikatsiyalangan moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega ekanligi ayonlashmoqda. Shuningdek, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirish tashkilotning xususiyatiga va uni moliyalashtirishga bo'lgan talabiga qarab murakkab va xilma-xil bo'lishi mumkinligini inobatga olish lozim.

1.3-§. Byudjet tashkilotlari tomonidan mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratning samaradorligini baholashning xorij tajribasi

O'zbekistonda so'nggi vaqtlarda byudjet shaffofligi va hisobdorligini oshirish bo'yicha bir qancha sa'y-harakatlar amalga oshirildi, jumladan, samaradorlikka asoslangan byudjetni shakllantirish va aholining byudjet ma'lumotlariga kirishini ta'minlovchi onlayn byudjet portalini tashkil etish. Bu sa'y-harakatlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan qadam bo'lib, byudjet tashkilotlari tomonidan davlat mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Asosiy muammolardan biri bu — byudjetni boshqarishda shaffoflik va javobgarlikning yo'qligi. So'nggi paytlarda onlayn byudjet portalini tashkil etish

orqali byudjet shaffofligini oshirish bo'yicha sa'y-harakatlar amalga oshirilgan bo'lsada, aholining byudjet ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati hali ham cheklangan va mavjud ma'lumotlar ko'pincha foydalanuvchilarga qulay formatda taqdim etilmaydi.

Yana bir muammo byudjet tashkilotlari xodimlarining davlat mablag'larini samarali boshqarish imkoniyatlarining cheklanganligidir. Byudjet tashkilotlari xodimlarining, xususan, moliyaviy menejment, tavakkalchiliklarni boshqarish, ish faoliyatini monitoring qilish va baholash bo'yicha ko'nikma va bilimlarini oshirish uchun ko'proq o'qitish va malakasini oshirish imkoniyatlariga ehtiyoj bor.

Byudjetni boshqarish jarayonlaridagi korrupsiya va samarasizlik ham O'zbekistonda asosiy muammo hisoblanadi. Bu davlat mablag'larining katta miqdorda o'zlashtirilishi yoki isrof qilinishiga olib keladi, bu esa xizmatlar ko'rsatish va umumiy iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Nihoyat, byudjetni boshqarish jarayonlarini tartibga solish, byudjet tashkilotlarining davlat mablag'laridan samarali foydalanish uchun javobgarligini ta'minlash uchun mustahkam huquqiy va me'yoriy-huquqiy bazaga ehtiyoj bor. Shuningdek, byudjet tashkilotlari tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlar va standartlarga rioya etilishini nazorat qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur. Umuman olganda, O'zbekistonda byudjet tashkilotlari tomonidan davlat mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni takomillashtirish bo'yicha hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator vazifalar mavjudligi tadqiqotimizning qanchalik dolzarbligini asoslaydi.

Biz, albatta, byudjet tashkilotlari tomonidan davlat mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish mavzusiga oid mavjud adabiyotlardan olingan g'oyalar va tushunchalarga tayanishimiz mumkin.

“Maqsadli xarajatlarni samarali nazorat qilish to'g'ri moliyaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismi bo'lib, davlat mablag'laridan foydalanishda shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni talab qiladi”⁴¹.

⁴¹ International Monetary Fund, Fiscal Transparency Handbook, 2018, p. 69.

Byudjet tashkilotlari tomonidan maqsadli sarflanishini nazorat qilish davlat mablag‘laridan maqsadli foydalanish va ko‘zlangan natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi⁴².

“Maqsadli xarajatlar dasturlarining muvaffaqiyati resurslardan ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun samarali foydalanishni ta’minlaydigan samarali nazorat mexanizmlariga bog‘liq”⁴³.

“Davlat mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlash uchun byudjet tashkilotlari maqsadli sarf-xarajat dasturlarini monitoring qilish va samaradorligini baholash bo‘yicha aniq maqsadlar, natijalar bo‘yicha chora-tadbirlar va javobgarlik mexanizmlarini belgilab olishlari kerak”⁴⁴.

Maqsadli xarajatlarni samarali nazorat qilish uchun kuchli nazorat, monitoring va baholash mexanizmlarini, shuningdek, byudjet tashkilotlari amal qilishi kerak bo‘lgan aniq yo‘riqnoma va tartiblarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli tizim zarur⁴⁵.

“Byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlash uchun monitoring va baholashning kompleks tizimini ishlab chiqish va joriy etish muhim ahamiyatga ega”⁴⁶.

“Davlat xarajatlarini nazorat qilish murakkab masala bo‘lib, adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Byudjet tashkilotlarining davlat mablag‘laridan maqsadli, davlat siyosati maqsadlariga muvofiq foydalanishini ta’minlash asosiy vazifalardan biridir. Turli mexanizmlar mavjud. Byudjet nazorati, samaradorlik monitoringi va auditni o‘z ichiga olgan taklif qilingan. Biroq, bu mexanizmlar amalda ko‘pincha siyosiy aralashuv va yetarlicha imkoniyatlar kabi muammolarga duch keladi”⁴⁷.

“Hisobdorlik davlat mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Byudjet tashkilotlari sharoitida hisobdorlik mexanizmlari

⁴² Organisation for Economic Co-operation and Development, Budgeting and Public Expenditures in OECD Countries, 2015, p. 56.

⁴³ World Bank, Public Financial Management and Its Emerging Architecture, 2018, p. 124.

⁴⁴ Government Accountability Office, Managing for Results: Enhancing Agency Use of Performance Information for Management Decision Making, 2016, p. 67.

⁴⁵ United Nations Development Programme, Public Financial Management for Sustainable Development, 2017, p. 89.

⁴⁶ Khabibullin R.F. The problem of targeted use of budgetary funds in the Russian Federation. Journal of Economy and Entrepreneurship, No. 3 (74), 2017. Pages: 686-692

⁴⁷ Hultenius R. The Control of Public Expenditure: Public Administration, Vol. 65, No. 3, Autumn 1987 Pages: 291-308

mablag'larning maqsadli, davlat siyosati maqsadlariga mos ravishda ishlatilishini ta'minlashga yordam beradi. Biroq, ko'zda tutilmagan oqibatlarga yo'l qo'ymaslik uchun ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqilishi kerak javobgarlik mexanizmlari zarur"⁴⁸.

S.Andryushinning ta'kidlashicha, "maqsadli xarajatlarni samarali nazorat qilish nafaqat moliyaviy nazoratni, balki tashkiliy va huquqiy nazoratni ham o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Uning taklifiga ko'ra, axborot texnologiyalaridan foydalanish nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, byudjet tashkilotlari faoliyatining shaffofligi va javobgarligini oshirish imkonini beradi"⁴⁹.

A.Radegin Rossiyada davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish muammolarini, jumladan, byudjet nazorati mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini muhokama qiladi. Ular byudjet nazorati samaradorligini oshirish uchun ichki auditorlarning rolini kuchaytirish va moliyaviy hisobot sifatini oshirish kabi kompleks chora-tadbirlarni taklif qilmoqdalar"⁵⁰.

Ye.Samsonova Rossiya davlat sektorida maqsadli xarajatlarni nazorat qilish muammolarini o'rganib chiqadi va bir qator yechimlarni taklif qiladi, shu jumladan, byudjet nazorati uchun yagona axborot tizimini ishlab chiqish va tavakkalchilikka asoslangan audit usullaridan foydalanish. U samarali byudjet nazoratiga erishishda manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlikdagi yondashuv muhimligini ta'kidlaydi⁵¹.

O.Kudryavseva raqamli transformatsiyaning byudjet nazorati mexanizmlariga ta'sirini muhokama qiladi va raqamlashtirish maqsadli xarajatlarni nazorat qilish samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etishini ta'kidlaydi. U byudjet nazoratining aniqligi va tezkorligini oshirish uchun ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyasidan foydalanishni taklif qiladi⁵².

⁴⁸ Chikaraishi J. Enhancing Accountability in Public Financial Management. Asian Development Bank Institute Working Paper Series, No. 724, 2016 Pages: 1-22

⁴⁹ Sergey V. Andryushin. Budget Control of Targeted Spending. Journal of Economic Regulation, vol. 10, no. 1, 2019, pp. 46-61.

⁵⁰ Alexander Radygin Modernization of Public Administration and Budget Control. Voprosy Ekonomiki, no. 11, 2019, pp. 95-118.

⁵¹ Ekaterina V. Samsonova. Budget Control of Targeted Spending: Problems and Solutions. Public Administration Issues, no. 2, 2020, pp. 95-116.

⁵² Olga G. Kudryavtseva Budget Control of Targeted Spending in the Context of Digital Transformation. Public Finance, no. 2, 2021, pp. 24-30.

D.Kirsanovning ta'kidlashicha, Rossiyada davlat mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilishning amaldagi tizimi samarasiz va uni isloh qilish kerak. U tizimni takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar, jumladan, mablag'larni taqsimlash va ular bo'yicha hisobot berish qoidalari va tartiblarini soddalashtirish, shaffoflikni oshirish, davlat xarajatlarini nazorat qilishda fuqarolik jamiyati rolini kuchaytirishni taklif qilmoqda⁵³.

J.Lu va V.Vang Xitoyning so'nggi o'n yil ichida davlat mablag'laridan foydalanishni nazorat qilishda erishgan yutuqlarini ko'rib chiqadi. Ularning qayd etishicha, shaffoflik va mas'uliyatni oshirish kabi ba'zi yaxshilanishlar kuzatilgan bo'lsada, korrupsiya va samarali nazoratning yo'qligi bilan bog'liq jiddiy muammolar hamon mavjud. Ular Xitoy mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun davlat xarajatlarini nazorat qilish bo'yicha o'zining huquqiy va institutsional asoslarini kuchaytirishi kerakligini taklif qilmoqda⁵⁴.

K.J.Pardun va J.E.Garrison qonun chiqaruvchi va ijroiya nazoratining roliga e'tibor qaratgan holda davlat xarajatlarini nazorat qilish tizimi haqida umumiy ma'lumot beradi. Ularning ta'kidlashicha, tizimda muntazam audit o'tkazish va omma oldida hisobot berish talabi kabi kuchli tomonlari bo'lsada, byudjet jarayonining murakkabligi, ayrim sohalarda shaffoflik yo'qligi kabi kamchiliklar ham mavjud. Ular AQSH boshqa mamlakatlar tajribasini o'rganishi va davlat xarajatlari ustidan mas'uliyat va nazoratni yaxshilash uchun islohotlarni amalga oshirishi mumkin⁵⁵, deb taklif qilmoqdalar.

S.A.Vasilev davlat mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash uchun samarali byudjet nazorati mexanizmlarining ahamiyatini muhokama qiladi. Uning ta'kidlashicha, aniq yo'riqnomalar yo'qligi va ijro mexanizmlarining zaifligi

